

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

III son, Fevral

MAKTABGACHA TA'LIMDA EKOLOGIK TARBIYA BERISHNING YOSHLAR TA'LIM-TARBIYASIGA TA'SIRI

Soliyev Ilhomjon Sobirovich

FarDU maktabgacha ta'lim kafedrasi mudiri

p.f.b.f.d.(PhD) dosent

Yigitaliyeva Odila G'ayratjon qizi

Farg'ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ekalogik madaniyatni shakilantirish, ekalogik tarbiyani amalga oshirish shakillari, ekalogik bilim berishning o'ziga hos xususiyatlari va tarbiyachilarning pedagogik mahoratlarini oshiruvchi amaliy laboratoriya namunalari berilaadi.*

Kalit so'zlari: *ekalogik madaniyatni shakilantirish tarbiyachilarning pedagogik mahoratini oshirish, amaliy laboratoriyalaridan namuna.*

Respublikamizda islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga mas'ul bo'lgan jamiyat a'zolari birinchi galda o'z kasbining mohir ustasi bo'lgan tarbiyachi kadrlar tayyorlash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Jumladan, "Ta'lim . Maktabgacha tarbiya yoshi davrida tarbiyachining bolaga shaxsiy ta'siri juda katta bo'ladi Tarbiyachi har bir bolaning kelajakda haqiqiy inson bo'lishiga yordam beradigan sifatlarini va imkoniyatini rivojlantirishi lozim. Chunki bu davrdagi har bir ta'surot bolaning xotirasida bir umrga saqlanib qoladi.

Maktabgacha talim sohasini rivojlantirishda bolalarga talim tarbiya berishning ilg'or usulari va uslublari ishlab chiqilmoqda jumladan bolalarga ekalogik madaniyatini yanada shakilantirish maqsadida ekalogik tarbiya mashg'uloti barcha maktabgacha talim muassasalarida o'tilib kelmoqda. Ekologik tarbiyaning bosh maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof- muhit va uning muammolari haqida ongli munosabatni hamda ular bo'yicha optimal yechimlar topish to'g'risidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat .Ekologik ta'lim va tarbiyaning tub ma'nosi - tabiat va jamiyat o'rtasidagi doimiy birlik va ularni bir-birlariga bug'luvchi tabiiy hamda ijtimoiy qonunlarni o'rganish, hayotga tatbiq qilishdan iboratdir

Insonning tabiiy boyliklardan haddan tashqari oshiqcha foydalanishi oqibatida sayyoramizning qiyofasi o'zgarib bormoqda. Yashil o'rmonlar siyraklashib, o'simlik va hayvonot turlari kamaymoqda, foydali qazilma boyliklari tugab bormoqda. Suv xavzalari va atmosferaga havosining ifloslanishi, chiqindi moddalarning ortib borishi natijasida aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash, energiya va chuchuk suv muammolari borgan sari murakkablashmoqda. Oqibatda, million-million yillar davomida turg'un bo'lgan tabiiy holatga putur yetmoqda. Hozirgi kunda ekalogik tarbiya masalasi butun dunyoda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Yosh avlodni atrof-muhitga nisbatan hurmat, e'tibor va

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

III son, Fevral

g'amxo'rlik ruhida tarbiyalash kelajakda barqaror rivojlanish va ekologik madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik tarbiya berish yosh bolalarning dunyoqarashi, axloqiy fazilatlari va tabiatga bo'lgan munosabatini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ekologik tarbiyaning ahamiyati

Ekologik tarbiya bolalarga tabiat va inson o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirishga yordam beradi. Bu jarayon bolalarda quyidagi fazilatlarni rivojlantiradi:

Tabiatga mehr-muhabbat – bolalar o'simliklar, hayvonlar va atrof-muhitni qadrlashni o'rganadilar. Mas'uliyat hissi – ekologik muammolar va ularning oqibatlari haqida bilimga ega bo'lish orqali bolalar tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishadi. Ijodkorlik va kuzatuvchanlik – tabiat bilan bog'liq kuzatishlar orqali bolalar ijodiy tafakkurlarini rivojlantiradilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ekologik tarbiya usullari Maktabgacha ta'limda ekologik tarbiya quyidagi usullar orqali olib borilishi mumkin:

Tabiat qo'ynida o'yin va tajribalar – bolalar ochiq havoda turli tajribalar o'tkazib, tabiatdagi o'zgarishlarni kuzatishadi.

Rasmlar chizish va qo'l mehnati mashg'ulotlari – bolalar o'zlarining ekologik mavzulardagi tushunchalarini san'at orqali ifodalashadi.

Ertaklar va hikoyalar orqali tushuntirish – ekologik mazmundagi ertaklar va hikoyalar bolalarning tushunchalarini boyitadi.

Amaliy mashg'ulotlar – daraxt ekish, gul parvarish qilish va suvni tejash kabi mashg'ulotlar orqali ekologik ong shakllanadi.

Ekologik tarbiyaning yoshlar ta'lim-tarbiyasiga ta'siri Maktabgacha ta'lim davrida berilgan ekologik tarbiya keyingi ta'lim bosqichlarida ham o'z samarasini ko'rsatadi. Yoshlar: Ekologik muammolar haqida xabardor bo'lishadi va ularni hal qilishda ishtirok etishga harakat qilishadi.

Ekologik madaniyatga ega bo'lishadi – chiqindilarni to'g'ri saralash, tabiiy resurslarni tejash kabi odatlarni shakllantiradilar.

Ijtimoiy mas'uliyat hissi ortadi – jamiyatning har bir a'zosi sifatida atrof-muhitni himoya qilishga intiladilar. Demak, maktabgacha yoshdagi bolalar ekologik tarbiyasidan ko'zlangan maqsadlardan biri - bir to'mondan - muqaddas Ona zaminimizni ozoda qilib saqlash bo'lsa, ikkinchi tomondan - musaffo osmonimizni aslidagi- dek saqlashdan iborat. Bu ona diyorumizni obod etishga qo'shiladigan katta hissa bo'lib, uning yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarda obodonchilik va orastalik, pokizalik va tejamkorlik, xushxulqlik va xushmuomalalik kabi insoniy fazilatlar shakllanadi. Bu borada tarbiyachidan maxsus bilim ko'nikma talab etiladi. Bolalarni mashg'ulot jarayoniga jalb qilishda turli hil amaliy laboratoriya mashg'ulotlari o'tkazilib borilsa bolalarda talim jarayoniga qiziqish tabiyatga mehri ko'rsatish hissi shakllanadi. Quyida mashg'ulot jarayonida foydalaniladigan amaliy laboratoriya mashg'ulotlaridan namuna beriladi.

Buning uchun bizga 3 ta idish suv sariq, ko'k ranglar va quruq salftokdan


Foydalanamiz

TA'LIM, TARBIIYA VA INNOVATSIYALAR

III son, Fevral

Ishning borishi : uchta idishga suv quyib olamiz birinchi idishga sariq rang qo'shamiz va uchunchi idishga ko'k rang qo'shamiz ikkala rangli idishga quruq salfetskani turubichka shaklida o'rab solamiz bizda ikkinchi idishda tiniq suv va ikkala sariq va ko'k rangli idish salfetasini uchini ikkinchi idish ichiga solamiz natijada sariq rang va ko'k rang ikkinchi idishga o'tib yashil rang hosil bo'ladi.

Tarbiyachining bolalarga ekologik ta'lim va tarbiya berishda xalqimizning o'ziga xos milliy tarbiyasidan o'rinli foydalanishi yaxshi samara byeradi. Milliy tarbiyamizda to'rt narsa - yer, suv, tuproq, havo muqaddas hisoblangan. Xalqimiz juda qadim zamonlardan suvga e'tiqod qo'yib, yozning eng jazirama kunlarida «Suv sayli» otkazgan. Otabobolarimiz «Suv - tabiat in'omi, hayot manbayi», deb bejiz aytishmagan. Har tomchi suvni gavhardek qadrlab, bog'-rog'lar yaratishgan. Biz esa suvdan xo'jasizlarcha foydalanishimiz natijasida Orol muammosining tug'ilishiga sababchi bo'ldik. Sirdaryo va Amudaryoning belgilangan yerga to'la yetib bormasligi natijasida bugun O'rta Osiyo uchun ahamiyatli bo'gan Orolning butunlay yo'qolish xavfi paydo bo'ldi». Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishda milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, marosimlar, nodir qo'lyozmalar va davlat arboblarning ushbu sohaga oid faoliyatlari mustahkam didaktik asos bo'lib, bular orqali ularni atrof-muhitni toza saqlashga, ozodalikka, pokizalikka va eng asosiysi sog'lom turmush tarzi hamda muhitini tashkil eta olishga o'rgatiladi.



TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

III son, Fevral

Tabiat shunday odil mo'jizaki, atrof-muhitni muvozanatga keltiradi. Chunonchi, chiqarilgan karbonat angidridni o'simliklar yutib, uni kislorodga aylantiradi, demak o'simliklar havoni chang va karbonat angidriddan tozalab byeruvchi bebaho vositadir. Bunda inson o'z atrofini o'rab turgan tabiatni, uning o'simliklar dunyosini ko'z qorachig'iday asrabgina qolmay, uni boyitishi, qo'lidan kelganicha ko'proq daraxt ekishi, ko'kalamzorlashtirishga intilishi zarur degan xulosa chiqadi. Shuning uchun ota bobolarimiz daraxt ekish, bog'-rog' yaratishni savobli ish deb bilishgan. Bir tup mevali daraxt ekkan kishining ikki dunyosi obod bo'ladi, deb bejiz aytishmagan.

ADABIYOTLAR:

1. Shulga T.I. Rol stanovleniya volevoy regulyatsii v razvitii mladshego shkolnogo vozrasta: mejvuzov, sborn. trudov Psixologo-pedagogicheskiye osobennosti razvitiya lichnosti mladshego shkolnika. -Penza, 1993.
2. Wofford J.C. Experimental analysis of a cognitive model of motivation. // J.Psychol. London, - 1990. - Vol. 124, № 1. - P.87-101.
3. Vigotskiy L.S. Razvitiye visshix psixicheskix funktsiy, Sobr. sochineniy M. 1982g. t.3
4. Yusupov O.N. Cognitive semantics in context. Wschodnioeuropejskie Czasopismo Naukowe 7 (2), 84-87.
5. Юсупов О.Н. Ўзбек адабиётининг инглиз тилидаги таржималарининг лингвокогнитив тадқиқи. Сўз санъати халқаро журнали. 3 сон, 3 жилд. Б.102-